

MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTI PEDAGOG-
TARBIYACHISINING TA'LIM TARBIYA JARAYONINI
REJALASHTIRISH FAOLIYATI

Isomova Farog'at Tojiddin qizi

Osiyo Xalqaro Universiteti

Pedagogika va psixologiya kafedrari o'qituvchisi

E-mail: isomovafarogattojiddinqizi@oxu.uz

Anotatsiya: Maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarning nutq hamda o'qish kompetensiyalarini shakllantirishning mazmuni, ushbu kompetensiyalarning bola rivojlanishidagi o'rni va samaradorligi yoritib berilgan.

Kalit so'zlar : nutq, bilim, ko'nikma, malaka, kompetensiya, rivojlanish, kommunikatsiya, og'zaki nutq, ijtimoiy munosabat, o'qish, savodxonlik, o'yin, dastur.

Содержание формирования речевых и читательских компетенций детей дошкольного возраста

Аннотация: В статье раскрывается содержание формирования речевых и читательских компетенций детей дошкольного возраста роль и эффективность этих компетенций в развитии ребенка.

Ключевые слова: речь, знание, умение, компетентность, компетентность, развитие, общение, устная речь, социальная установка, чтение, грамотность, игра, программа.

Content of formation of speech and reading competences of children of pre-school

Annotation: The content of the formation of speech and reading competencies of children of preschool age the role and effectiveness of these competencies in child development is explained in the article.

Key words: speech, knowledge, skill, competence, competence, development, communication, oral speech, social attitude, reading, literacy. game, program

Rivojlanib borayotgan mamlakatimiz barcha sohalarda o'z rivojlanish strategiyalarni belgilab bormoqda. Binobarin, „2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi” ham mamlakatimiz farovonligi va

uzluksiz taraqqiy etib borishini ta'minlaydi. Ta'lim esa taraqqiyotning asosiy harakatlantiruvchi omili bo'lib xizmat qiladi. Bu borada Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning „Qaysi sohani olmaylik, biz zamonaviy yetuk kadrlarni tarbiyalamasdan turib biron-bir o'zgarishga, farovon hayotga erisha olmaymiz. Bunday kadrlarni, millatning sog'lom genofondini tayyorlash, avvalo, maktabgacha ta'lim tizimidan boshlanadi" degan so'zlari yuqorida keltirilgan fikrimizning yorqin dalilidir.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarining barcha tarbiyaviy-ta'limiy ishlarida bolalarga nutq o'stirishni o'rgatish orqali ularning nutqiy kompetensiyalari shakllantirib boriladi. Ayniqsa, nutq o'stirish mashg'ulotlarida har bir bolaning nutqini rivojlantirish bo'yicha ishlar rejalashtiriladi. Bolalarga barcha mashg'ulotlarning mazmuni va mohiyati faqat nutq o'stirish orqali singdiriladi. Shu o'rinda rus pedagogi K.D. Ushinskiy „Nutq o'stirish- har qanday taraqqiyotning asosi, butun bilimning xazinasidir. Har qanday tushunish undan boshlanadi, u orqali o'tadi va unga qaytadi" deb ta'kidlab o'tgan. Maktabgacha ta'limning asosiy shakli mashg'ulotdir. Nutq o'stirish mashg'ulotlarida bola o'z nutqini tarbiyachining namunaviy nutqi bilan taqqoslashga, boshqa bolalar bilan o'quv materialini bajarishga, ya'ni tarbiyachining tushuntirishini, hikoyasini tinglashga, birgalikda rasmlarni, mediafilmlarni ko'rishga, suhbatlashishga, didaktik o'yinlarda ishtirok etishga, birgalikda kuylashga, musiqa tinglashga, ma'lum bir obyektga diqqatini qarata olishga, navbat bilan gapirishga o'rganadi. Bolalar mashg'ulotda yangi bilimlar (voqea va hodisalar o'rtasidagi bog'lanishlarga taalluqli so'zlar, nutqning grammatik shakllari) bilan tanishadilar, tarbiyachining nutqiy ko'rsatmasi orqali o'quv ishlarini bajarishga, ishlariga baho berishga o'rganadilar.

Nutq o'stirishni o'rgatish mashg'ulotlarini didaktik maqsadiga ko'ra quyidagi tiplarga ajratish mumkin:

- yangi materialni bayon etuvchi mashg'ulotlar;
- bilim, malaka va ko'nikmalarni mustahkamlovchi mashg'ulotlar;
- bilimlarni umumlashtiruvchi va bir tizimga soluvchi mashg'ulotlar;
- yakunlovchi yoki tekshiruvchi-hisobga oluvchi-sinovchi aralash mashg'ulotlar.

Bolalar maktabgacha ta'lim tashkilotida ilgari hosil qilingan bilim, ko'nikma va malakalarni mustahkamlovchi mashg'ulotlardan keng foydalaniladi. Masalan, sayohatlari haqida hikoya qilib berish, sport xonasi haqida suhbat, ilgari o'qib yoki hikoya qilib berilgan ertak yoki hikoyani qayta so'zlab berish, ilgari yod olgan she'rlarini takrorlash.

Bilimlarni umumlashtiruvchi va bir tizimga soluvchi mashg'ulotlar. Bu mashg'ulot turi o'zining mazmuni jihatidan ilgari hosil qilingan bilim, ko'nikma va malakalarni mustahkamlovchi mashg'ulot turiga yaqinroqdir. Masalan, „Kimga nima kerak?“, „Do'kon“ o'yinlarida bolalar predmetlarni rangiga, shakliga, nima uchun mo'ljallanganligiga qarab tasniflaydilar. Katta guruhlarda ona yurt, kattalarning mehnati, transport haydovchisining mehnati, kitoblar haqida umumlashtiruvchi suhbat o'tkaziladi. Bunda bolalar oldiga materialni maqsadga qaratgan holda esga olish vazifasi qo'yiladi. Umumlashtiruvchi tipdagi mashg'ulotlar bolalarda mantiqiy tafakkurni, analitik-sintetik faoliyatni shakllantirishda katta ahamiyatga ega. Hisobga oluvchi mashg'ulotlardan tasviriy faoliyatda keng foydalaniladi. Biroq bu mashg'ulot turi bolalarning nutq o'stirish bo'yicha bilim va malaka darajalarini aniqlash uchun zarurdir.

Ayrim bilimlar bo'yicha sinov-tekshiruv mashg'ulotlarini o'quv yilining boshida guruhga yangi qabul qilingan bolalarning bilimni aniqlash maqsadida o'tkazish maqsadga muvofiqdir. Qilingan ishlarga yakun yasash maqsadida yilning oxirida ham sinov tekshiruv mashg'ulotlari o'tkaziladi.

Bolalar maktabgacha ta'lim tashkilotida ko'proq aralash turdagi mashg'ulotlardan foydalanish joriy qilingan. Masalan, bir mashg'ulotning o'zida bolalarni yangi bilim beruvchi material bilan tanishtiriladi, ilgari hosil qilingan bilim (o'tilgan material) takrorlanadi va mustahkamlanadi. Nutq o'stirish mashg'ulotlari o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, ayrim vaqtlarda mashg'ulotni o'tkazishda qiyinchiliklar vujudga keladi.

Tasviriy faoliyat, jismoniy tarbiya, musiqa mashg'ulotlarida, barcha bolalar bir xilda faollik ko'rsatadilar, ammo nutq o'stirish mashg'ulotida barcha bolalar faol qatnashmaydilar. Rasm asosida hikoya tuzish, savollarga javob berish, she'rni yoddan aytib berish kabi topshiriqlar bo'yicha ba'zi bolalar javob beradilar, qolganlar esa o'rtoqlarining javobini to'ldiradilar. Mashg'ulot vaqti chegaralanganligi sababli, har bir bola bilan alohida shug'ullanish imkoniyati yo'q. Shuning uchun mashg'ulotlarda yuqori natijalarga erishish uchun ularni umumiy didaktik talablarga javob beradigan qilib tashkil etish kerak.

Har bir tarbiyachi mashg'ulotlarni tashkil etishda quyidagi didaktik talablarga qat'iy rioya qilishi lozim:

Mashg'ulotga oldindan puxta tayyorlanish, uning mazmunini, ta'lim usullarini aniqlash. Bunda nutq o'stirish bo'yicha bolalarning bilim va malakalari aniq bo'lishi kerak. Belgilangan dastur materialini o'rganish uchun zarur bo'lgan metodlar va usullar tanlanadi, mashg'ulotning tuzilishi va borishi oldindan o'ylab olinadi. Kerakli ko'rgazmali qurollar, o'quv jihozlari tayyorlab qo'yiladi,

individual (yakkama-yakka) ta'lim vazifalari aniqlanadi (yakka beriladigan topshiriqlar, bolalarni javob berishga chaqirish navbati belgilanadi).

Aqliy ish bilan bandlik yukini to'g'ri taqsimlash. Tarbiyachi ta'limning rivojlantiruvchi tamoyiliga amal qilib, bolalardan aqliy faollikni talab etuvchi, murakkab vazifalar beradi. Ba'zan bolani aqliy ish bilan band qilish yoki aqliy zo'riqishni talab etuvchi ish yetarli bo'lmaydi: bolalarning o'zlari mustaqil ravishda ish ko'rishga kirisha olmaydi, analitik-sintetik xarakterdagi nutqiy vazifalarni hal eta olmaydi; predmetlar o'rtasidagi bog'liqlikni (aloqadorlikni) aniqlay olmaydi; o'xshash narsalarni guruhlay olmaydi va hokazolar.

Aqliy ish bilan bandlik yukini (aqliy zo'riqishni) to'g'ri taqsimlashda mashg'ulotning aralash strukturasi (tuzilishi), shuningdek, xulosa chiqarish va taqqoslash uchun beriladigan savollar va topshiriqlar yordam beradi.

Mashg'ulotning tarbiyaviy xarakterga ega bo'lishi.

Nutqni rivojlantirish bo'yicha mashg'ulotlarni tashkil etishda ta'limning tarbiyaviy tomoni ham hisobga olinadi. Bolalar tomonidan nutq o'stirishni egallash, uning boyligini, jozibadorligini bilib olish vatanparvarlik tarbiyasini amalga oshirishda yordam beradi. Ijtimoiy-tarixiy hayot voqealari, buyuk siymolar Navoiy, Beruniy, Ibn Sino, Ulug'bek, Bobur, Amur Temur, Jaloliddin Manguberdi, Sobir Rahimov va hokazolar haqidagi hikoyalar axloqiy tuyg'ular bilan bog'liq bo'lib, ular bolalarni ona vatanga muhabbat, baynalminallik, kollektivizm, mehnatsevarlik ruhida tarbiyalashda katta ahamiyatga ega.

Mashg'ulotning jo'shqinlik xarakteriga ega bo'lishi. Mashg'ulotni boshlashdan avval bolalarda bilim olish istagini, qiziquvchanlikni, yangilikni bilib olishga ishtiyoqni vujudga keltirish kerak. Mashg'ulot bolalarda qoniqish hissini vujudga keltirishi lozim.

Ta'lim usullarini mashg'ulotning tuzilishiga qarab tanlash. Mashg'ulotning tuzilishi avvaldan aniq qilib belgilab qo'yilishi kerak. Mashg'ulotning boshida yangi material bilan tanishtirishda avvalgi mashg'ulotlarda o'rganilgan materiallar esga olinib, uni bolalar tajribasi bilan bog'lanadi. Katta guruhlarda ko'pincha mashg'ulotning maqsadi asoslab beriladi. Masalan, tarbiyachi bolalar bilan nutqning tovush madaniyatini tarbiyalash bo'yicha mashg'ulotni boshlashda avval shunday deydi: „Aytishi qiyin so'zlarni to'g'ri talaffuz etishga o'rganish kerak. Chunki bizning nutqimiz to'g'ri, chiroyli, atrofdagilar uchun tushunarli bo'lishi lozim“. Tarbiyachining bunday asosli gapi bolalarning yangi bilim va ko'nikmalarni egallash zarurligiga ishoniradi. Mashg'ulotning asosiy qismini aniq rejalashtirish kerak bo'ladi. Uning birinchi bosqichida (yangi vazifani hal etishda) bolalarga nutqiy faoliyatning va uning maqsadini aniqlashga yordam beruvchi ta'limning asosiy usullari mujassamlashgan bo'ladi. So'ngra bolalar tomonidan

mustaqil ishlar amalga oshiriladi va tarbiyachi tomonidan rahbarlik qilinadi. Mashg'ulotning yakuniy qismi qisqa va jo'shqinligi bilan ajralib turishi kerak, ya'ni mashg'ulotda o'zlashtirilgan materialni mustahkamlash uchun mavzuga yaqin bo'lgan badiiy asarlarni o'qib berish, she'r aytib berish, topishmoq aytish, didaktik o'yin kabi usullardan foydalaniladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Isomova, F. A. T. Q. (2022). MAKTABGACHA TALIM TASHKILOTLARIDA BOLALARNI MAKTAB TA'LIMIGA TAYYORLASHDA NUTQ O'STIRISH MASHG'ULOTLARINING AHAMIYATI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(1), 947-949.
2. Isomova Farog'at Tojiddin qizi. (2023). THE CONTENT OF THE FORMATION OF SPEECH AND READING COMPETENCES OF PRESCHOOL CHILDREN. *International Multidisciplinary Journal for Research & Development*, 10(11).
3. Isomova Farog'at Tojiddin qizi. (2023). INVALIDITY IN CHILD EDUCATION IS THE BASIS OF DEVIANT BEHAVIOR. *American Journal of Public Diplomacy and International Studies (2993-2157)*, 1(10), 342–346.
4. Isomova Farog'at Tojiddin qizi. (2023). MODERN IN FORMING SPEAKING COMPETENCES OF PRESCHOOL CHILDREN APPROACHES. *American Journal of Public Diplomacy and International Studies (2993-2157)*, 1(10), 347–352.
5. G'aniyevna, P. R. F. (2022, June). MAKTABGA TAYYORLOV GURUHLARI UCHUN SAVODXONLIKKA O'RGATISH MASHG'ULOTLARIDA, A'HARF-TOVUSHINI O'RGATISH METODIKASI. In *E Conference Zone* (pp. 38-41).
6. Ravshanovna, X. S. (2022). BO 'LAJAK O 'QITUVCHILAR VA O'QUVCHILAR O 'RTASIDAGI MULOQOT JARAYONI VA UNGA QO 'YILADIGAN TALABLAR. *Лучший инноватор в области науки*, 1(1), 814-819.
7. XALILOVA, S. (2021). JAHON PEDAGOGIKASIDA ZAMONAVIY PEDAGOGIK MULOQOT VA MILLIY PEDAGOGIK MULOQOT USLUBLARIGA TRANSFORMATSIYASI. *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz)*, 1(1).
8. Akbarovna, I. S. (2023). NEGATIVE AND POSITIVE CHANGES IN ADOLESCENT BEHAVIOR. *TECHNICAL SCIENCE RESEARCH IN UZBEKISTAN*, 1(5), 192-197.

9. Akbarovna, I. S. (2023). SOCIO-PSYCHOLOGICAL FACTORS OF BEHAVIOR FORMATION IN ADOLESCENTS. TECHNICAL SCIENCE RESEARCH IN UZBEKISTAN, 1(5), 184-191.
10. Akbarovna, I. S. (2023). THE DEVELOPMENT OF CONSCIOUSNESS AND THE TEACHING OF CONCEPTS OF THE UNCONSCIOUS TO STUDENTS. TECHNICAL SCIENCE RESEARCH IN UZBEKISTAN, 1(5), 107-114.
11. Bahodirovna, H. N. (2023). BOSHLANG'ICH SINFLARDA ONA TILI O'QITISH METODIKASI FANINING METODOLOGIK VA ILMIY ASOSLARI.
12. Hojiyeva, N. (2023). METHODS OF TEACHING MOTHER TONGUE IN PRIMARY CLASSES SCIENTIFIC AND METHODOLOGICAL BASIS. *Modern Science and Research*, 2(9), 424-428.
13. Bahodirovna, H. N. (2023). TA'LIM JARAYONIDA BOSHLANG'ICH SINFLARDA TEXNOLOGIYA FANINI O'QITISH MUAMMOSINING YORITILISH MAZMUNI. *PEDAGOGS jurnali*, 1(1), 209-209.
14. Kozimova, N. A. (2023). BUGUNGI TA'LIM TIZIMIDA ZAMONAVIY O 'QUVCHI SHAXSINING IJTIMOY VA PSIXOLOGIK JIHATLARI. *Educational Research in Universal Sciences*, 2(10), 44-46.V
15. Abduqahhorovna, N. K. (2023). PSIXOLOGIK KONSULTATSIYAGA MUROJAAT QILUVCHI OTA-ONALARNING FARZAND TARBIYASI MUAMMOLARINI O 'RGANISHDA HADISLARDAN TERAPIYA SIFATIDA FOYDALANISH.
16. Sobirovna, S. Y. (2023). O 'YIN ORQALI BOLA TAFAKKURI VA NUTQINI OSTIRISH. *SAMARALI TA'LIM VA BARQAROR INNOVATSIYALAR*, 1(3), 93-99.
17. Yulduz, S. (2023). KREATIV YONDASHUVLAR ASOSIDA BOLALAR NUTQI VA TAFAKKURINI RIVOJLANTIRISH. *ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ*, 23(2), 87-92.
18. Tursunova, Z. (2023). METHODOLOGY OF MOTHER TONGUE TEACHING IN PRIMARY SCHOOLS. *Modern Science and Research*, 2(9), 350-352.
19. Malikovna, K. R. (2023). IQTISODIY MUSTAQILLIK-YANGILANAYOTGAN O 'ZBEKISTON IJTIMOY-IQTISODIY SALOHİYATINING MODDIY ASOSI. *Scientific Impulse*, 2(15), 18-22.
20. Karimova, R. N. M. (2018). DEVELOPMENT OF MOTIVATION IN HISTORY LESSONS USING ELEMENTS OF LOCAL LORE. In XLIII

INTERNATIONAL SCIENTIFIC AND PRACTICAL CONFERENCE" INTERNATIONAL SCIENTIFIC REVIEW OF THE PROBLEMS AND PROSPECTS OF MODERN SCIENCE AND EDUCATION" (pp. 121-123).

21. Karimova, R. M. (2020, March). The Participation of the Tajiks in the Development of Small and Medium-Sized Businesses in the Russian Far East. In International Scientific Conference" Far East Con"(ISCFEC 2020) (pp. 277-281). Atlantis Press.

22. Каримова, Р. М. (2020). ФИЛОСОФИЯ НЕЗАВИСИМОСТИ ЯВЛЯЕТСЯ ИДЕОЛОГИЧЕСКОЙ ОСНОВОЙ НАЦИОНАЛЬНОГО РАЗВИТИЯ СТРАНЫ. In EUROPEAN RESEARCH: INNOVATION IN SCIENCE, EDUCATION AND TECHNOLOGY (pp. 47-49).

23. Лукмонова, С. (2022). ВО 'LAJAK BOSHLANG 'ICH SINF O'QITUVCHISINING RAQAMLI TA'LIM RESURSLARIDAN FOYDALANISHGA TAYYORLIGINI SHAKLLANTIRISH: Lukmonova Salomat Gafurovna, Boshlang'ich ta'lim nazariyasi kafedrası o'qituvchisi, Buxoro davlat universiteti orcid 0000-0001-9040-0232. *Образование и инновационные исследования международный научно-методический журнал*, (1), 221-226.

24. Gafurovna, L. S. (2021). BOSHLANG'ICH SINFLARDA RAQAMLI TA'LIM RESURSLARIDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI. In *Научно-практическая конференция*.

25. Narziyeva, S. (2023). PSYCHOLOGICAL VIEWS ON THE CHOICE OF PROFESSION. *Modern Science and Research*, 2(10), 333-336.

26. Narziyeva Shaxnoza Rustamjon qizi. (2023). PSYCHOLOGICAL CHARACTERISTICS OF THE MANIFESTATION OF ADOLESCENT EMPATHY. *American Journal of Public Diplomacy and International Studies* (2993-2157), 1(9), 132-134.

27. O'ktam qizi Buxoro, S. M. (2022). BOLANING NUTQINI RIVOJLANTIRUVCHI O'YINLAR. *PEDAGOGS jurnali*, 1(1), 484-486.

28. Shukurova Madina O'ktam qizi. (2023). "Methods of formation of spiritual and moral qualities in 6-7-year-old children in preschool educational organization". *American Journal of Public Diplomacy and International Studies* (2993-2157), 1(10), 353-356.

29. Madina O'ktam qizi Shukurova. (2023). Speech grow up in training using interactive methods. *American Journal of Public Diplomacy and International Studies* (2993-2157), 1(10), 357-360.

30. Сайфуллаева, Н. Б., & Марданова, Ф. Я. (2021). научно-методические основы организации самостоятельной работы по высшей математике. *Проблемы науки*, (4 (63)), 84-87.

31. Сайфуллаева, Н. Б. (2019). Роль дидактических игр в умственном развитии учащихся в математике начального класса. In INTERNATIONAL SCIENTIFIC REVIEW OF THE PROBLEMS OF PHILISOPHY, PSYCHOLOGY AND PEDAGOGY (pp. 102-106).

32. Сайфуллаева, Н. Б. (2023). ВАЖНОСТЬ МАТЕМАТИКИ И ЕСТЕСТВЕННЫХ НАУК ДЛЯ УЧАЩИХСЯ НАЧАЛЬНОЙ ШКОЛЫ: Сайфуллаева Нозима Баходировна, преподаватель кафедры “Теория начального образования”, Бухарский государственный университет. Город Бухара. Республика Узбекистан. Образование и инновационные исследования международный научно-методический журнал, (1), 305-307.

33. Сайфуллаева, Н. Б. (2023). РОЛЬ ЦИФРОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В ОБУЧЕНИИ КОМПЬЮТЕРНЫМ НАУКАМ. Universum: технические науки, (4-1 (109)), 41-43.

34. Сайфуллаева, Н. Б. (2022). ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ДИДАКТИЧЕСКОГО ПРОГРАММНОГО ОБЕСПЕЧЕНИЯ В ОБУЧЕНИИ МАТЕМАТИКЕ. НОВЫЕ ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: сборник статей V, 10.